

**MAHALLIY TALK XOMASHYOSINING KIMYOVİY VA FİZİK-KIMYOVİY TARKİBİNİ O'RGANİSH**

**O.A. Mixliyev**

**A.A. Nabiyev**

*Toishkenit kimech-technologiya institutimi.*

*Gmail: [ruslanyorbobayev@gmail.com](mailto:ruslanyorbobayev@gmail.com)*

Talk xalq xo'jaligi va tibbiyotning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Talk xomashyosining 80 % ga yaqini asosan qog'oz, bo'yoq, keramika va plastmassa sanoatlarida, shuningdek tibbiyotda, parfyumeriya va farmatsevtika sohalarida ishlataladi. Kosmetika sohasida talkni asosan bolalar kukuni ishlab chiqarishda ishlatalinib, ushbu kukunning sirt xususiyatlari hidni saqlab qolishga imkon beradi; talk kukuni kukunlar, kremlar, malhamlar va boshqa tayyor va yarim tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi[1, 2].

Toza holdagi talk mineralining kimyoviy formulasi  $3\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ko'rinishda bo'lib, uning qattiqligi Mos shkalasi bo'yicha 1 ga teng ekanligi aniqlandi. Uning tuzilishi tekis va tabiatda gidrofob hususiyatga ega mineral hisoblanadi. Nazariy jihatdan uning tarkibida magniy oksidi ( $\text{MgO}$ ) - 31,90%, kremniy dioksidi ( $\text{SiO}_2$ ) - 63,40% va bog'langan suv ( $\text{H}_2\text{O}$ ) - 4,7% ni tashkil etadi [3].

Mamalakatimizning Jizzax, Samarcand viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Angren shaharlarida talk minerali xomashyosi konlari mavjud bo'lib, ushbu konlardan olib kelingan talk minerali xomashyolarining kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlillar asosida ularning tarkiblari aniqlangan va olingan natijalar qo'yidagi 1-jadval va rasmlarda keltirilgan.

### **1-Jadval**

#### **Mahalliy talk minerali xomashyolarining kimyoviy tarkibi**

<b>Konlar</b>	<b>Komponentlar miqdori, og'ir. %</b>							
	<b>Ca</b>	<b>Mg</b>	<b>Si</b>	<b>Al<sub>2</sub></b>	<b>TiO<sub>2</sub></b>	<b>Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub></b>	<b>SO<sub>3</sub></b>	<b>Zr</b>
<b>O</b>	<b>O</b>	<b>O<sub>2</sub></b>	<b>O<sub>3</sub></b>		<sub>3</sub>			<b>O<sub>2</sub></b>
<b>Angren</b>	0,8 07	29, 3	66 ,9	0,6 42	0,00 69	0,34 3	0,00 94	0,0 87
<b>Qoraqalp oq</b>	1,4 2	27, 6	55 ,2	2,5 9	0,01 83	6,69 29	0,03 32	0,1 32
<b>Jizzax</b>	0,5 96	29, 1	68 ,1	0,3 30	0,00 61	0,34 5	0,01 58	0,0 95

Keltirilgan 1-Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Angren koni talk minerali xomasyosining tarkibidagi asosiy komponentlar, mass. % da CaO - 0,807, MgO – 29,30, SiO<sub>2</sub>-66,90, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-0,642 hamda Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-0,343, Qoraqalpog'iston koni talk mineralida CaO - 1,42, MgO – 27,40, SiO<sub>2</sub>-55,20, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-2,59 va Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-6,69 hamda Jizzax konidagi talk



**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**


mineralida  $\text{CaO}$  - 0,596,  $\text{MgO}$  – 29,10,  $\text{SiO}_2$ -68,10,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ -0,33 hamda  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ -0,345 % komponentlar mavjud ekanligi kimyoviy tahlillar asosida aniqlandi.

Shuningdek, kimyoviy tahlillarni tasdiqlash maqsadida samarali energiya dispersli rentgen-flurestsentsiya spektrometri bilan Qoraqalpog'iston koni talk mineralining mineralogik va elementar tarkiblari tahlil qilinga bo'lib, ushbu namunaning tarkibida, mass. % da,  $\text{MgO}$ -27,2;  $\text{SiO}_2$ -50,70;  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ -7,40 va  $\text{Al}_2\text{O}_3$ -2,95 % mavjudligi aniqlangan va uning fizik-kimyoviy tahlil asosida olingan natijalar qo'yidagi 1-rasmda keltirilgan.


Analyzed result(FP method, Scatter)

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Cl	0.0305	mass%	0.0003	0.0002	0.0006
2	MgO	27.2	mass%	0.0552	0.0249	0.0746
3	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	2.95	mass%	0.0158	0.0177	0.0531
4	SiO <sub>2</sub>	50.7	mass%	0.0308	0.0761	0.228
5	SO <sub>3</sub>	0.0410	mass%	0.0007	0.0004	0.0013
6	CaO	2.23	mass%	0.0101	0.0064	0.0192
7	TiO <sub>2</sub>	0.0284	mass%	0.0011	0.0022	0.0067
8	Cr <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.331	mass%	0.0015	0.0011	0.0032
9	MnO	0.0146	mass%	0.0013	0.0036	0.0109
10	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	7.40	mass%	0.0070	0.0013	0.0040
11	Co <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0420	mass%	0.0018	0.0052	0.0155
12	NiO	0.232	mass%	0.0012	0.0006	0.0017
13	ZnO	0.0055	mass%	0.0001	0.0001	0.0004
14	Ga <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0011	mass%	<0.0001	0.0001	0.0004
15	As <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0007	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0003
16	SrO	0.0039	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0002
17	ZrO <sub>2</sub>	0.142	mass%	0.0013	0.0003	0.0010
18	Ag <sub>2</sub> O	0.0007	mass%	<0.0001	0.0002	0.0005
19	SnO <sub>2</sub>	0.0018	mass%	0.0001	0.0003	0.0009
20	PbO	(0.0003)	mass%	<0.0001	0.0002	0.0005
21	Dy <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	(0.0265)	mass%	0.0053	0.0159	0.0478

Spectrum

**1-rasm. Qoraqalpog'iston koni talk mineralining rentgeno-flyuorescent tahlili**

Shunday qilib, Mamalakatimizning Jizzax, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Angren konlaridan olib kelingan mahalliy talk xomashyolari namunalari labaratoriya sharoitida kimyoviy tahlil qilindi hamda Qoraqalpog'iston koni talk minerali namunasining rentgeno-flurestsentsiya spektrometrik tahlil qilingan va ushbu tahlil asosida olingan natijalar kimyoviy tahlillar asosida olingan natjalarga mos ekanligi isbotlangan.





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Набиев А.А., Намазов Ш.С., Сейтназаров А.Р., Реймов А.М., Айымбетов А.Ж. Известково-аммиачная селитра и её применение в сельскохозяйственном производстве. // Universum: Технические науки: электрон. научн. журн. – Новосибирск. – 2017. – №6 (39) – С. 25-39.

2. Davlatmamadova Mavluda Mamadniyozovna “Fizik-kimyoviy va texnologik Tojikiston talkumni tozlash asoslari” dissertatsiya ishi (texnika fanlari nomzodi). Dushanbe . 2016 yil.

3.Давлатмамадова М.М., Исупов С.Д., Рузиев Д.Р. Физико-химические свойства талька мульводжского месторождения. Вестник Таджикского Национального Университета 2013. стр. 139-141 (научный журнал) 1/1(102) Душанбе : «Сино» 2013. стр.139-141.

